

Xulosa. Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida porey piyozdan yuqori tovarbop hosil olishda Osenniy gigant (57,8 t/ga),

Vesta (51,4 t/ga) va Elefant MS (51,3 t/ga) navlarida foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Агафонов А.Ф., Медведев И.В. Ценные образцы лука порея для селекции на зимостойкость и высокую продуктивность // Журнал «Картофель и овощи». – Москва, 2008. – № 1. – С. 27-28
2. Борисенкова Л.С. Особенности европейского сортимента лука-порея в связи с использованием его в селекции // Сборник научных трудов по прикладной ботанике, генетике и селекции. – Москва, ВИР, 1986. – Т.102. – С. 116-119.
3. Кирносоева Т.И. Лучшие образцы лука порея в условиях Волго-Ахтубинской поймы // Журнал «Бюллетен ВИР». – Ленинград, 1988. – Вип. 162. – С. 45-50.
4. Круг Г. Овощеводство (учебник). – Москва: Колос, 2000. – 576 с.

SHIRIN QALAMPIRNING YOQUT F₁ DURAGAYI TAVSIFI VA UNI YETISHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Axmedov Baxtiyor Maxammadjonovich,
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD),
Xolmurodova Go'zal Ro'ziyevna,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), professor.

Annotatsiya. Maqolada yangi yaratilgan Yoqut F₁ geterozis duragayining tavsifi va uni yetishtirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan. Yoqut F₁ duragayining andoza Lotta F₁ duragayiga nisbatan ertapisharlikda, hosildorlikda ustunligi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan bardoshliligi qayd etilgan. Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayini issiqxonalarda ko'chat usulida ekib yetishtirishning afzalligi, ushbu yangi geterozisli duragay O'zbekistonning barcha viloyatlari issiqxonalarda ekin uchun tavsiya etilishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: shirin qalampir, geterozis duragay, ertapisharlik, hosildorlik, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik, ko'chat usuli, urug'chilik, morfologik belgi, tovar mahsulot.

Аннотация. В статье дано описание вновь созданного гетерозисного гибрида Ёкут F₁ и даны рекомендации по его выращиванию. По сравнению со стандартным гибридом Лотта F₁ отмечено превосходство гибрида Ёкут F₁ по скороспелости, урожайности, устойчивости к болезням и вредителям. Преимущество выращивания гетерозиготного гибрида сладкого перца Ёкут F₁ в теплицах рассадным способом, этот новый гетерозиготный гибрид рекомендован к выращиванию в теплицах всех регионов Узбекистана.

Ключевые слова: перетс сладкий, гетерозисный гибрид, скороспелост, продуктивность, устойчивост к болезням и вредителям, способ посадки, семеноводство, морфологический признак, товарный продукт.

Abstract. The state document provides a description of the newly created heterotic hybrid Yakut F₁ and gives recommendations for its cultivation. Compared to the standard Lotta F₁ hybrid, the Yokut F₁ hybrid is a better hybrid and I have many diseases and pests. The advantage of growing the heterozygous hybrid sweet pepper Yokut F₁ in a greenhouse using seedlings, but the new heterozygous hybrid is recommended for cultivation in a greenhouse in all regions of Uzbekistan.

Key words: sweet pepper, heterotic hybrid, early ripening, productivity, resistance to diseases and pests, planting method, seed production, morphological trait, marketable product.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat muammosini hal qilishda shirin qalampirning sifatli, transportabelligi yuqori, kasalliklarga nisbatan bardoshli bo'lgan geterozis duragaylarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shirin qalampirni boshqa sabzavot ekinlariga nisbatan o'ziga xosligi, mevasini ko'kligida ham, qizarganda ham iste'mol qilish mumkin hamda mevasida A va S vitamininga boy hisoblanadi. Shunga ko'ra biz o'z tadqiqotlarimizda ushbu ekin turiga e'tiborimizni qaratdik.

Tadqiqotlardan asosiy maqsad-shirin qalampirning sifatli, kasalliklarga nisbatan bardoshli, transportabelligi yuqori bo'lgan mahalliy geterozis duragaylarini yaratishdan iborat.

Sapsicum annum L. turiga mansub shirin qalampirning Yoqut F₁ duragayi borasida ishlar Andijon viloyati Oltinko'l tumanida joylashgan "Green Valley seeds" xususiy korxonasi issiqxonasida olib borildi. Ushbu Yoqut F₁ geterozis duragayi dastlab GVS-3007 raqami bilan nomlanib, ushbu raqam yaratilgan duragayning sinonimi hisoblanadi.

Seleksion ishlar 2019 yilda boshlangan bo'lib, shu yili duragaylashga jalb qilingan. Bunda onalik sifatida Aneta F₁ duragayini Dar Toshkenta naviga chatishtirib olingan (♀ Aneta F₁ x ♂ Dar Toshkenta) va Yoqut F₁ geterozis duragayi yaratilgan.

Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayining kichik nav sinovi ishlari 2020-2021 yillarda, tanlovli stansion sinovlar 2022-2023 yillarda o'tkazildi. "Green Valley seeds" xususiy korxonasi issiqxonalarda stansiyalararo-tanlovli nav sinash ishlari olib borildi (1-2-3-4-rasmlarga qarang).

Yoqut F₁ geterozis duragayi mahsuloti mevasi yangiligicha iste'mol qilinadi va quritilib, ziravor sifatida iste'mol qilish mumkin. Issiqxonalarda doimiy yerga ekish uchun 15-16 sm, 5-6 ta chinbarg chiqargan 50-55 kunlik ko'chatlar ekiladi. Ko'chat qalinligi 1 ga maydon uchun tomchilatib sug'oriladigan sharoitda 35-40 ming tupni tashkil qiladi. Issiqxonalarda ko'chatlar birpoyali qilib o'stiriladi. Ko'chatlar yotib qolmasligi uchun xar xil tirgaklar qo'yiladi. Yuqori hosil olish uchun gektar yer 40-50 tonna orga-

nik o'g'it, 150-170 kg azotli o'g'itlar, 150 kg fosforli 130 kg kaliyli o'g'itlar bilan o'g'itlanadi.

Yoqut F₁ geterozis duragayi qurg'oqchilikka chidamsiz, yorug'lik yetishmasa o'simlik nimjon o'sib ketadi, gul va shonalari tashlab yuboradi.

Urug'chililigi ko'ra, har yili ota-ona shakllarini chatishtirish orqali duragay urug'lari olinadi. Urug'chilikning maqbul zonalar O'zbekistonning markaziy xududlaridagi issiqxonalar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Yangi Yoqut F₁ duragayi ertapishar nav hisoblanadi. Yoqut F₁ duragayining (59 kun) to'liq unib chiqqandan to birinchi hosil yig'imigacha bo'lgan kunlar soni andoza Lotta F₁ (63 kun) duragayiga nisbatan 4 kunga ustunlikni namoyon qildi. Meva berish davri Yoqut F₁ duragayida o'rtacha 103 kunni, andoza sifatida qo'llanilayotgan Lotta F₁ da 93 kunni tashkil etdi. Umumiy hosildorlik esa yaratilgan Yoqut F₁ duragayida 15 kg/m² ni tashkil etgan bo'lsa, andoza Lotta F₁ da 13 kg/m² ga teng bo'ldi. Tovar hosildorligi bo'yicha Yoqut F₁ (25,1 kg/m²) duragayining andoza Lotta F₁ (20,9 kg/m²) ga nisbatan 4,2 kg/m² ustunligi qayd etildi. Bunda umumiy hosildagi tovar mahsulot foiz hisobida esa Yoqut F₁ duragayida o'rtacha 93 % ni tashkil etgan bo'lsa, andoza Lotta F₁ duragayida 86 % ga teng bo'ldi. Tovar mahsulot massasi Yoqut F₁ duragayida o'rtacha 193 g ga teng bo'lib, andoza Lotta F₁ duragayi (117,3 g) dan 75,7 g ustunlik namoyon bo'ldi (1-jadval).

Tovar mahsulot diametri Yoqut F₁ duragayida o'rtacha 5 sm

bo'lsa, andoza Lotta F₁ duragayida 6,2 sm ni, tovar mahsulot uzunligi yaratilgan duragayda o'rtacha 11 sm ni tashkil etgan bo'lsa, andoza Lotta F₁ duragayida 14 sm ni tashkil etdi.

Umumiy hosildagi notovar mevalar Yoqut F₁ duragayida 7 % ni, andoza Lotta F₁ duragayida 14 % ni tashkil etgani holda, maydalari yaratilgan duragayda 4,7 % ni, andoza Lotta F₁ duragayida 4,6 % ga teng bo'ldi. Oftob urganlari Yoqut F₁ duragayida 2,8 %, andoza Lotta F₁ duragayida 9,4 % ga teng bo'lgan katta farq sezildi. Yangi uzilgan mevalar Yoqut F₁ duragayida 4,8 % bo'lsa, andoza Lotta F₁ duragayida 4,3 % ni tashkil etdi. Tarkibiga ko'ra, quruq modda va umumiy shakar har ikkala duragayda ham tegishli ravishda o'rtacha 7,5 % va 3,6 % ga teng bo'ldi. Yaratilgan shirin qalampirning Yoqut F₁ duragayida transportAbellik yaxshi, andoza Lotta F₁ duragayida esa o'rtacha, meva tugishning jadalligi Yoqut F₁ duragayida jadal, andoza Lotta F₁ duragayida sust bo'lganligi aniqlandi.

Ushbu yangi duragay qurg'oqchilikka o'rtacha chidamliligi, haddan ortiq namlikka chidamli, sovuqqa chidamsiz, issiqqa chidamliligi o'rtacha chidamli hisoblanadi.

O'g'itlash va sug'orishga munosabati yaxshi, suvni hosil berayotgan davrda tez-tez talab etadi. Hosildan urug'ni chiqish foizi 0,5 % ni tashkil etadi.

Bizga ma'lumki, shirin qalampir ko'proq fuzarioz so'lish kasalligiga chalinishi, o'simlik asosan zamburug'li va bakteriyal

1-jadval.

Xo'jalik va biologik xususiyatlari.

Ko'rsatkichlar	Yangi duragay Yoqut F ₁				Andoza Lotta F ₁			
	2020 y	2021 y	2022 y	O'rtacha	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Pishish guruhi: ertapishar, o'rtapishar, kechpishar	ertapishar				ertapishar			
To'liq unib chiqqandan to birinchi hosil yig'imigacha bo'lgan kunlar soni	60	57	60	59	65	60	64	63
Meva berish davri, kunlar (meva berishning boshlanishi va tugashi)	105	100	104	103	95	90	94	93
Umumiy hosildorlik, kg/m ²	16	14	15	15	13	12	14	13
Tovar hosildorligi, kg/m ²		28,62	25,1	26,3	19,2	22,6	21,2	20,9
Umumiy hosildagi tovar mahsulot, %	91	95	93	93	83	87	88	86
Tovar mahsulot massasi, g	192	195	192	193	115	120	117	117,3
Tovar mahsulot diametri, sm	5	4,7	5,3	5	6	6,5	6,2	6,2
Tovar mahsulot uzunligi	11	10,8	11,2	11	13,7	14	14,3	14
Umumiy hosildagi notovar mevalar, %, shu jumladan:	9	5	7	7	17	13	12	14
Maydalari %	5,3	2,4	4,7	4,2	5,6	4,6	3,8	4,6
Oftob urganlari, %	3,7	2,6	2,3	2,8	11,4	8,4	8,2	9,4
yangi uzilgan mevalar	4,8	4,5	4,8	4,7	4,0	4,7	4,2	4,3
Tarkibi:								
A) Quruq modda, %	7,0	7,5	8,0	7,5	7,2	7,5	7,8	7,5
B) Umumiy shakar, %	3,4	3,5	4,0	3,6	3,6	3,7	3,9	3,6
TransportAbellik (yaxshi, o'rtacha, yomon)	o'rtacha	yaxshi	yaxshi	yaxshi	o'rtacha	o'rtacha	o'rtacha	o'rtacha
Meva tugishning jadalligi (jadal, sust)	jadal	jadal	jadal	jadal	sust	sust	sust	sust

kasalliklar bilan kasallanish xususiyatiga ega bo'lib, o'simlik nihollarini yetishtirish davomida issiqxona sharoitida asosan tuproq zamburug'lari ildiz chirish kasalliklarini qo'zg'atsa, o'simliklarning vegetatsiya va saqlash davrida dog'lanish va chirish kasalliklari kuzatilishi mumkin. Ushbu kasalliklarni oldini olish choralarini qo'llashda urug' dorilagichlarni o'rni katta hisoblanadi.

Shirin qalampirning "Yoqut" F₁ duragayi.



"Yoqut F₁" duragayi ko'chatlari.



"Yoqut F₁" duragayi dastlabki mevalarining shakllanishi.



"Yoqut F₁" duragayi mevalarining texnik pishib yetilgan holati.



"Yoqut F₁" duragayi mevalarining biologik pishib yetilgan holati.

Shuningdek, ochiq dala sharoitida asosiy zararkunandalari shira, kanalar, oqqanot, trips, kasalliklardan mevalarni uchidan chirishi, bakterial qora dog', so'lish, mozaika, stolbur kuzatiladi.

Shirin qalampirda asosan issiqxona sharoitida eng ko'p tarqalgan kasallik bu antraknoz. Bu o'simlikning mevasida va poyasida qora dog'larni paydo bo'lishiga olib keladi, shu bilan bir qatorda fuzariozli so'lish kasalligini ko'proq uchraydi.

Bizning tajribamizda kasallik va zararkunandalar bilan zararlantirish darajasi tabiiy yuqishga ko'ra, umumiy zararlantirishga baho berildi. Yangi Yoqut F₁ geterozisli duragayi andoza Lotta F1 duragayiga nisbatan 2020 yilda 3 % kam (tegishli ravishda Yoqut F1 5 %, Lotta F1 8 %), 2021 yilda 1,5 % (tegishli ravishda Yoqut F1 4,5 %, Lotta F1 6 %), 2022 yilda esa 3 % kam (tegishli

ravishda Yoqut F1 4 %, Lotta F1 7 %), zararlantirishga qayd etildi.

Yaratilgan duragay qator sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lib, jumladan ertapisharligi, kladosporioz, antraknoz, fomo, fuzariozli so'lish, serkosporo, ildiz chirishi kabi kasalliklarga nisbatan bardoshliligi, mevasining sifati yaxshi va transportda tashishga yaroqliligini hisobga olgan holda ushbu duragay davlat sinoviga taqdim etilgan va ekishga tavsiya etilgan eng yaxshi nav va duragaylar bilan taqqoslaganda uning afzalliklari namoyon bo'ldi.

Xulosa. Duragayning morfologik belgilariga ko'ra, shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozisli duragayining gipokotilida antotsian rang mavjud. Poyasining uzunligi issiqxona sharoitida 60-70 sm ga yetadi. Poyaning pastki qismidan 3-4 ta novda hosil qiladi. O'simlik tipi yarim shtambli. Bargliligi o'rtacha, barg plastinkasi poyada ketma-ket joylashgan, shakli tuxumsimon, uchki qismining shakli o'tmas uchli, barg ko'ndalang kesimining profili tekis, yuzasi silliq, barg plastinkasi o'lchami uzunligi 15x7 sm, rangi to'q yashil.

Bir uyli ikki jinsli o'simlik hisoblanadi. Meva bandining poyada joylashuvi yarim osilgan holatda, uzunasiga kesimining shakli konussimon.

Meva asosidagi botiqlik juda kuchsiz, meva yuzasidagi to'lqinsimonlik yo'q. Meva yuzasining qovurg'aliligi o'rtacha. Mevabandida kosabargning xolati qamrab turmaydi. Platsentada kapsaitsin moddasining mavjudligi yo'q. Meva devorining qalinligi mm 6-8 mm. Mevadagi kameralar soni uch-to'rtta bo'lib, texnik pishgan vaqtida mevaning rangi och yashil, biologik pishgandagi mevaning rangi qizil.

Ushbu yangi duragayda yetishtirish usuliga ko'ra ko'chat orqali yetishtirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Urug'larni ekishga tayyorlash usuliga ko'ra, shaffof plenkali issiqxonalarga 1m² maydonga 6-7 g urug'lar toza suvda 24 soat ivitilib ekiladi va ustiga 2-3 sm chirigan go'ng sepiyadi.

Maxsus yashiklarda undirib olingan nihollar 2-3 chinbarg chiqargandan keyin yetishtirish mavsumiga qarab 50-70 yacheykali kassetalarga pikirovka qilinadi. Ko'chatlar 70x30 sm yoki 70x40sm sxemada, yer osti suvlari yaqin bo'lgan yerlarda 90x25sm sxemada ekiladi.

O'simlik butun vegetatsiya davri davomida holatiga qarab tomchilatib sug'orish usulida mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi va davriy yig'imlar har 2-3 kunda olib boriladi.

Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayi ko'chat orqali yerga ekiladi. Ekish sxemasi 70x30 sm yoki 70x35 sm ni tashkil etadi.

Issiqxonaning ichida harorat meyoridan oshib ketganida issiqxonaning ustini salqinantiruvchi maxsus to'r bilan yopiladi. Issiqxonada shirin qalampir palaklarining yotib qolishini oldini olish maqsadida qoziqlar qoqilib, shu qoziqlarga uzunasiga 2-3 qator iplar tortiladi.

Ushbu yangi duragayning mehnat sarfi va xarajatlar 50-55 so'm/ga, duragaydan foydalanishda ko'zda tutilgan iqtisodiy samara 200-210 mln so'm/ga tashkil etadi.

Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayi issiqxona sharoitida ko'chat usulida yetishtirish yaxshi samara beradi. Ushbu duragayni O'zbekistonning barcha viloyatlari issiqxonalarida ekin uchun tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Azimov B.B., Mavlyanova R.F., Azimov B.J. O'zbekistonda shirin qalampirdan yuqori xosil olish buyicha tavsiyalar. Toshkent: 2016. 18-b.
2. Xo'jayev SH.T. O'simliklarni zararkunandalardan uygunlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari.- Toshkent: "Navruz" - 2014 b-26-30.

3. Rasulov F.F. Takroriy muddatda shirin qalampir navlarini tanlash va yetishtirish texnologiyasining elementlarini takomillashtirish. Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi. - Toshkent - 2017.b-11-13

4. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestri. Toshkent2020. b-51-52.

5. <https://cyberleninka.ru/>

6. <https://agro-olam.uz/shirin-qalampir>.

УЎТ: 631.4.2/4 (584.4).10

ПОМИДОРНИНГ ВЕГЕТАТИВ ВА ГЕНЕРАТИВ ОРГАНЛАРИДА УМУМИЙ NPK МИҚДОРЛАРИ ВА ТУПРОҚДАН ОЗИҚ МОДДАЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШИ

Нормуратов Ойбек Улуғбердиевич,

Термиз давлат университети Экология ва тупроқшунослик кафедраси доценти, қ.х.ф.ф.д (PhD),
Пахта селекцияси ва уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти докторанти,

Закиров Холмат Хуррамович, профессор,

Неъматова Моҳида Тилло қизи, магистрант,

Термиз давлат университети.

Аннотация. Сурхондарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлар шароитида кузги буғдойдан бўшаган майдонга такрорий экин сифатида экилган помидорни (вегетатив ва генератив органларида умумий NPK миқдорлари) тупроқдан озиқ моддаларни ўзлаштири олиши ўрганилди ва бу ушбу мақоладан ўрин эгаллади. Помидорнинг “Сурхон-142” нави устида тажрибалар олиб борилди.

Калит сўзлар: помидор, тупроқ, азот, фосфор, калий, минерал ўғит, органик ўғит, сабзавот.

Аннотация. Для изучения общего количества NPK в вегетативных и генеративных органах томатов и усвоения питательных веществ из почвы, которая считается повторной овощной культурой из осенней пшеницы в условиях голодных богатых почв Сурхандарьинской области, были проведены эксперименты на повторной овощной культуре, на сорте «Сурхан-142» из помидоров.

Ключевые слова: томат, почва, азот, фосфор, калий, минеральное удобрение, органическое удобрение, овощ.

Abstract. To study the total amount of NPK in the vegetative and generative organs of tomatoes and the assimilation of nutrients from the soil, which is considered a repeat vegetable crop from autumn wheat in the conditions of hungry rich soils of the Surkhondarya region, experiments were conducted on a repeated vegetable crop, on the variety «Surkhan-142» from tomatoes.

Keywords: tomato, soil, nitrogen, phosphorus, potassium, mineral fertilizer, organic fertilizer, vegetable.

Кириш. Тупроқдан ўзлаштирадиган озиқ моддаларнинг умумий миқдори ўсимликларнинг тупроқ унумдорлигига бўлган талабини тўла қондира олмайди. Бироқ ўсимликларнинг тупроқдаги озиқ моддалар ва ўғитларга бўлган талабини тўғри баҳолаш учун тупроқдан сўриб оладиган озиқ элементларнинг фақат умумий миқдоригина эмас, балки бир кеча- кундузлик ўртача миқдорини ҳам ҳисобга олиш зарур.

Тадқиқот материаллари ва усули. Тадқиқотлар лаборатория ва дала шароитларида ўтказилиб, УзПТИнинг “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (1981, 2007 йй.), “Методика проведения полевых опытов в орошаемых зонах” (1973 йй.), Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах (1963 йй.) услублар асосида олиб борилди.

П.П.Кюз ва В.А.Брузгалов маълумотларига кўра, сабзавот экинлари тупроқдан сўриб оладиган озиқ моддаларнинг умумий ва ўртача бир- кеча кундузлик миқдори помидорда 400 ц/га ҳосил учун, бутун ўсув даврида сўриб олинган NPK, 263 кг/га, ўсув даври куни 159 ва бир кеча кундузлик

ўзлаштирилган NPK, 1,8 кг/га тенг бўлган. Бу маълумотлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, деярли барча сабзавот, полиз ва картошка экинлари унумдор юза қисми қатқалоқ бўлмайдиган юмшоқ тупроқларда мўл ҳосил беради.

Ўтказилган тажрибаларимизда помидор ўсимлигининг озиқ моддаларни жадал ўзлаштирадиган ҳосил тугиш ва гуллаш давларида олинган натижалар таҳлиliga кўра, ўсимликдаги азот миқдори унинг озиқланишига мос равишда ўзгарди. Озиқ моддалар билан қулай таъминланган вариантларда умумий ва оксилли азот кўп миқдорда тўпланган бўлса, аксинча оксилсиз азот миқдори кам бўлди. Ҳосил тугиш даврида ўғитсиз-назорат вариантда ўсимлик барглари таркибидаги умумий азот миқдори 1,54%, оксилли ва оксилсиз азот мос равишда 0,9-0,52 % ни ташкил этдган бўлса, минерал ўғитларни ўзи алоҳида қўлланилган вариантларда эса, бу кўрсаткичлар мос равишда 2,51; 1,4; 0,59 ва 2,46; 1,38 ҳамда 0,57% ни ташкил этганлиги аниқланди. Шунга мос равишда умумий миқдорга нисбатан оксилли азот миқдори вариантлар бўйича ўғитсиз назорат вариантыда 35,4 % ни, минерал ўғитларни ўзи алоҳида қўлланилган